



DINIY DUNYOQARASHNING INSON MA'NAVIYATINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI

Voxidov Shoxruhbek Shuxratbek o'g'li

*Namangan shahar maktabgacha va maktab
ta'limi bo'limi, o'qituvchi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada diniy dunyoqarashning inson ma'naviy kamoloti, axloqiy fazilatlar va ruhiy barkamollikdagi o'rni yoritiladi. Islom dini asosida shakllangan qadriyatlar, tarixiy va zamonaviy ijtimoiy muhitda insonni tarbiyalashdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, diniy dunyoqarashning ma'naviy uyg'unlik va jamiyat barqarorligiga ta'siri yoritiladi.

Kalit so'zlar: diniy dunyoqarash, ma'naviyat, axloq, qadriyat, tarbiya, ruhiy barkamollik.

Annotation. This article explores the role of religious worldview in the spiritual development, moral values, and inner harmony of an individual. It analyzes the importance of values formed on the basis of Islam in educating individuals within both historical and modern social contexts. Furthermore, the article highlights the impact of religious worldview on spiritual harmony and societal stability.

Keywords: religious worldview, spirituality, morality, values, education, inner harmony.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль религиозного мировоззрения в духовном становлении личности, формировании нравственных качеств и внутренней гармонии. Анализируется значение ценностей, сформированных на основе ислама, в воспитании человека в историческом и современном социальном контексте. Также освещается влияние религиозного мировоззрения на духовную согласованность и стабильность общества.



Ключевые слова: религиозное мировоззрение, духовность, нравственность, ценности, воспитание, внутренняя гармония.

KIRISH

Insoniyat tarixida diniy dunyoqarash har doim muhim ijtimoiy-ma'naviy kuch bo'lib kelgan. Har bir davrda, har bir jamiyatda diniy e'tiqod va tafakkur insonlarning hayot tarzini belgilab bergan, ularning axloqiy mezonlarini shakllantirgan, muayyan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda asosiy omillardan biri bo'lgan. Diniy tafakkur nafaqat ilohiy haqiqatlar bilan tanishtiradi, balki inson qalbida ezgulik, adolat, vijdon, sabr-toqat, kechirimlilik, mehr-oqibat kabi oliy fazilatlarni shakllantiradi. Bu jihatlar dinning inson ruhiy dunyosini boyitish, uni yuksak ma'naviyat egasiga aylantirishdagi beqiyos ahamiyatini ko'rsatadi.

Dunyo sivilizatsiyalari tarixida diniy g'oyalar yuksak badiiy, falsafiy va ijtimoiy tafakkurning rivojiga turtki bergan. Xususan, Sharq tamaddunida, jumladan, o'zbek xalqining madaniy merosida diniy-ma'rifiy qarashlar o'ziga xos o'rin egallaydi. Islom dini bu yerda nafaqat e'tiqod manbai, balki ilm-fan, madaniyat, adabiyot, axloq va ma'naviyatni shakllantiruvchi omil sifatida rivojlangan. Ayniqsa, Movarounnahr zaminidan yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlar – Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshband, Alisher Navoiy va boshqa allomalarning asarlarida diniy-ma'naviy qadriyatlar chuqur falsafiy mazmun bilan uyg'unlashgani yaqqol ko'rinadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'zbek jamiyatining tarixiy taraqqiyotida din va ma'naviyat bir-birini to'ldirib kelgan asosiy tushunchalardan hisoblanadi. Bu ikki tushuncha hamisha bir-biriga tayanib, jamiyatda ezgulik va barqarorlikni ta'minlash, insonni komil inson sifatida tarbiyalashda asosiy omil bo'lib xizmat qilgan. Ma'naviyatga tayanmagan diniy e'tiqod quruq rasmiyatchilikka aylanib qolishi mumkin bo'lsa, diniy g'oyalar bilan boyitilmagan ma'naviyat esa chuqur ildizsiz, yuzaki bo'lishi





mumkin[1.58]. Shu bois, ularning uyg'unligi jamiyatning har tomonlama yuksalishida muhim rol o'ynaydi.

Diniy dunyoqarash — bu insonning hayotga, borliqqa, yaxshilik va yomonlikka bo'lgan munosabatini belgilovchi ruhiy-axloqiy mezonlar majmuasidir. U inson tafakkuri va ongida olamning yaratilishi, insonning bu dunyodagi o'rni, hayotning ma'nosi, yaxshilik va yomonlik kabi tushunchalarga nisbatan aniq, izchil tasavvurlarni shakllantiradi[4.36]. Diniy dunyoqarash insoniyatning qadimdan shakllanib kelgan axloqiy normalariga asoslanadi va ularni avloddan-avlodga uzviy tarzda yetkazib keladi.

Bu qarashlar asosida inson o'z hayot yo'lini belgilaydi, harakatlarini nazorat qiladi, muomala va xulq-atvorida ma'naviy mezonlarga tayanadi. Diniy dunyoqarash inson ichki olamini boyitib, uning jamiyatda tutgan o'rnini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, islom dini inson hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan mukammal axloqiy-me'yoriy tizimga ega bo'lib, sabr, shukr, saxiylik, halollik, tavoze, mehr-oqibat, odob va sadoqat kabi fazilatlarni ustuvor qadriyat sifatida ilgari suradi.

Ushbu qadriyatlar faqat diniy ibodat bilan chegaralanmaydi, balki kundalik turmushda, insonlar o'rtasidagi munosabatlarda, mehnatga munosabatda, hatto tabiatga bo'lgan hurmatda ham namoyon bo'ladi. Diniy dunyoqarash shaxsning ichki uyg'unligini ta'minlab, uni komil inson bo'lish sari yetaklaydi. Bularning barchasi inson ma'naviyatining ajralmas va asosiy elementlari sifatida namoyon bo'ladi.

Qur'oni Karim va hadislar inson axloqini yuksaltirishga xizmat qiluvchi aniq va izchil ko'rsatmalar tizimini o'zida mujassam etgan. Bu ilohiy manbalar insonning qalbini poklash, niyatini sof saqlash, atrofdagilarga nisbatan mehr-shafqatli bo'lish, halol mehnat qilish, adolatli qarorlar chiqarish kabi hayotiy muhim fazilatlarni targ'ib qiladi. Islom axloqiyati nafaqat tashqi xatti-harakat, balki ichki ruhiy holatni ham tartibga solishga qaratilgan. Shuning uchun Qur'onda “eng yaxshilaringiz – axloqan eng go'zal bo'lganlaringizdir” degan mazmundagi oyatlar inson axloqining din asosidagi ulug'ligini ko'rsatadi.





Hadisi shariflar esa bu oyatlarni amaliy mezonlar bilan boyitib, insonning kundalik hayotidagi turli holatlar uchun axloqiy yo'riqnomalar vazifasini bajaradi. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning hayot yo'li (sunnati) axloqiy yetuklikning amaliy namunasi bo'lib, u orqali musulmon kishi yuksak axloq mezonlariga erishishga intiladi[6.158].

Buyuk mutafakkirlar — Imom al-G'azzoliy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Yassaviy kabi allomalar o'z asarlarida diniy-ta'limiy g'oyalarni chuqur falsafiy tafakkur bilan boyitib, ma'naviy yetuk inson idealini yaratganlar. Imom al-G'azzoliy o'zining "Ihyoyi ulumiddin" asarida inson qalbining pokligi va axloqiy komillikka erishish yo'llarini keng yoritadi. Forobiy esa "Fozil odamlar shahri" asarida axloqiy jihatdan barkamol jamiyatni yaratish g'oyasini ilgari suradi. Ahmad Yassaviy o'z "Hikmatlar"ida ruhiy poklik, sabr, tavba, zohidlik, fidoyilik kabi fazilatlarni kuylab, xalq orasida diniy-ma'naviy yetuklikni targ'ib qilgan.

Bu qadriyatlar insonni nafaqat jamiyat oldidagi burchlarini sidqidildan ado etishga, balki o'zini o'zi nazorat qilish, ya'ni ichki vijdon va ma'naviy mas'uliyat bilan yashashga da'vat etadi. Shaxs o'z harakatlarini ilohiy mezonlarga muvofiq baholashga, ichki ehtiros va nafsni jilovlashga o'rganadi. Bu esa jamiyatda ijtimoiy adolat, tinchlik va barqarorlikning muhim kafolatiga aylanadi.

Bugungi globallashuv davrida insoniyat ko'plab yutuqlarga erishayotgani barobarida, ma'naviy inqiroz, axloqiy tanazzul, individualizm, yengil hayot tarziga ruju qo'yish kabi salbiy holatlar ham jamiyat hayotiga singib bormoqda. Ayniqsa, yosh avlod orasida milliy va diniy qadriyatlarga befarqlik, hayotiy maqsadning yo'qligi, ma'naviy bo'shliq kabi muammolar[7.95] tobora dolzarb tus olmoqda. Aynan shunday vaziyatda diniy dunyoqarash — insonni ichki barqarorlikka, ezgulikka, axloqiy mezonlarga sodiq yashashga undovchi kuch sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Diniy-ma'rifiy qarashlar odamzodni ma'naviy ildizlariga bog'lab turadi. U insonning faqat tashqi muomala va harakatlarini emas, balki qalbini, niyatini, ichki kurashlarini tarbiyalaydi. Shu bois, globallashuvning kuchli oqimi ostida



o'zligini yo'qotmaslik, o'z millatiga, tiliga, madaniyatiga sodiq bo'lib yashashda diniy qadriyatlar asos bo'lib xizmat qiladi. Islom dini targ'ib qiladigan halollik, poklik, sabr, kamtarlik, mehr-oqibat kabi fazilatlar zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga ham to'la mos tushadi.

Bu jarayonda oila, maktab va ommaviy axborot vositalari muhim ijtimoiy institutlar sifatida o'z o'rnini to'laqonli egallashi zarur. O'zbek oilasining qadimiy an'alariga ko'ra, farzand tarbiyasi birinchi navbatda ota-onaning ma'suliyatidir. Ayni paytda maktabda esa diniy-ma'rifiy ruhdagi axloqiy tarbiya orqali yoshlar ongida axloqiy immunitet shakllanishi kerak. OAV esa xalq ongiga ta'sir etuvchi kuch sifatida ijobiy diniy-ma'naviy qadriyatlarni keng targ'ib qilishi muhim.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning: "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" degan chuqur mazmunli fikri bugungi kun uchun ham dolzarbdir. Zero, yuksak ma'naviyatga ega jamiyat har qanday tashqi tahdid yoki mafkuraviy bosimga bardosh bera oladi. Bu ma'naviyatning eng muhim manbalaridan biri esa aynan diniy qadriyatlardir. Ular yosh avlodni hayotda to'g'ri yo'ldan yurishga, murakkab qarorlar oldida adashmaslikka, ichki bardamlik va iroda bilan yashashga ruhlantiradi.

Ma'naviy barkamollik – bu insonning ichki dunyosining uyg'unligi, vijdoniy pokligi, ruhiy barqarorligi va axloqiy mukammalligidir. U nafaqat tashqi odob-axloq me'yorlariga amal qilish, balki ichki olamning ham tozalik va uyg'unlik holatidir. Ma'naviy yetuk inson har bir so'zini, harakatini, niyatini ma'naviy mezonlarga solishtirib baholaydi, boshqalar bilan muomala va muloqotda halollik, adolat, sabr-toqat, kechirimlilik kabi qadriyatlarga tayanadi.

Shu ma'noda, diniy tafakkur insonning komillikka intilishida hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Diniy qarashlar insonni doimiy ravishda o'z ustida ishlashga, nafsini tiyishga, gunohdan yiroq bo'lishga va savobli ishlar sari intilishga undaydi. Bunday ruhiy tarbiya shaxsda mas'uliyat hissi, vijdon uyg'oqligi, halol mehnatga e'tibor va boshqalarga nisbatan rahm-shafqat bilan qarash singari sifatlarni shakllantiradi.





Ma'naviy barkamollikka intilgan inson o'zini emas, avvalo jamiyatni, atrofdagilarni o'ylaydi. Shu sababli u bag'rikeng, murosali, ijtimoiy barqarorlik tarafdori bo'ladi. Bunday insonlar ko'paygan jamiyatda esa totuvlik, mehr-oqibat, adolat va tinchlik muhitining mustahkamlanishi tabiiy holga aylanadi. Zero, har bir inson qalbida yaxshilikka intilish bo'lsa, jamiyatda yovuzlikka o'rin qolmaydi[9.29].

Diniy tafakkur orqali shakllangan ma'naviy barkamollik — bu nafaqat individual ruhiy barqarorlik, balki jamiyat taraqqiyotining, milliy birlik va hamjihatlikning muhim omilidir. Zero, komil insonlardan tashkil topgan jamiyat har qanday sinov va tahdidga bardosh bera oladi, chunki u ichki quvvatini — ma'naviyatni yo'qotmaydi.

XULOSA

Diniy dunyoqarash — bu inson ma'naviyatining asosiy negizi, ruhiy hayotining tayanchidir. U orqali inson qalbi poklanadi, ichki dunyosi musaffolashadi, axloqiy mezonlar shakllanadi va mustahkamlanadi. Diniy tafakkur faqatgina ibodatlar tizimi emas, balki butun hayot tarzini ma'naviy mezonlarga mos holda boshqarish imkonini beruvchi tamoyillar majmuidir. Bu qarash insonni o'zini anglashga, vijdoni bilan yashashga, nafsini jilovlashga va doimo komillik sari intilishga undaydi.

Ruhiy barqarorlik va axloqiy yetuklik — bu har bir insonning shaxsiy taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan poydevor bo'lib, diniy-ma'rifiy qarashlar ushbu barqarorlikni ta'minlaydigan eng muhim manbalardan biridir. Zero, qalbi toza, niyati sof inson jamiyatda ham ijobiy muhit yaratishda faol ishtirok etadi, o'z harakati va qadriyati bilan boshqalarga ijobiy namuna bo'la oladi.

Shu bois, har qanday jamiyatda, ayniqsa, globallashuv va axborot xuruji kuchaygan hozirgi davrda diniy-ma'rifiy tarbiya asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lishi zarur. Bu tarbiya orqali insonlar nafaqat din asoslarini o'rganadi, balki o'z shaxsiy hayotini to'g'ri yo'lga qo'yishga, axloqiy qarorlar qabul qilishga o'rganadi. Diniy qadriyatlarga tayangan holda shakllangan ma'naviyat yoshlar ongida mustahkam axloqiy immunitet hosil bo'lishiga xizmat qiladi.





Moddiy taraqqiyot jamiyat rivojining muhim ko'rsatkichi bo'lsa-da, faqat moddiy yuksalish bilan barqaror va uyg'un jamiyatga erishish imkonsizdir. Barkamol jamiyat — bu avvalo ma'naviy yetuk, ichki uyg'unlikka erishgan insonlardan tashkil topgan jamiyatdir. Aynan diniy-ma'rifiy asosda shakllangan yuksak ma'naviyat jamiyatda totuvlik, bag'rikenglik, adolat va ijtimoiy mas'uliyat muhitini kuchaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ergashev I. S. Shaxs ma'naviy kamolotida erkinlik va ijtimoiy mas'uliyat uyg'unligi. nomz. Diss.Avtoreferati . - Toshkent: 2011, -B. 15.
2. Safojev N.S. Psixologicheskiye osobennosti natsionalnogo samosoznaniya studencheskoy molodeji. Avtoref. Diss. ... dok. psix. Nauk. – Tashkent: 2005,
3. Sagindikova N.D. Talabalar o'quv faoliyatida mas'uliyatning gender xususiyatlari. (PhD)dok. diss. Avtoreferati . - Toshkent: 2017, -B. 13.Y FS1
4. Xayrullayev.M.M. Ma'naviyat yulduzlari. “Abdulla Qodiriy”. – Toshkent: 1999.
5. Носиров Р. А. ЎЗБЕК ХАЛҚИНИНГ ЭТНИК ШАКЛЛАНИШИ //Uzbek Scholar Journal. – 2022. – Т. 9. – С. 198-202..
6. Nosirov R. THE PLACE AND ROLE OF THE MASTER AMIR TEMUR IN WORLD HISTORY //Uzbek Scholar Journal. – 2022. – Т. 9. – С. 203-205.
7. Nosirov, R., & Mamajanova, G. (2022). International Ratings and Index Indicators of the Republic of Uzbekistan. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 4, 86- 88.
8. Sadikova, D. A. (2023). TEACHING RUSSIAN AS A FOREIGN LANGUAGE IN THE MODERN STUDY OUTLOOK: TEACHING DICTIONARIES. World of Scientific news in Science, 1(2), 104-115.
9. Mamatqulov, E. (2022). TARAQQIYOT STRATEGIYASI YANGI O'ZBEKISTONDAGI MA'NAVIY ISLOHOTLAR ASOSI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(6), 950-953.